

Atavullayeva Shahlo Musoyevna
Buxoro davlat pedagogika instituti
ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi
shahloatavullayeva01@gmail.com

O'ZBEKISTON SSR VA HINDISTON O'RTASIDAGI MADANIY ALOQA VA UCHRASHUVLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston SSR va Hindiston o'rtasidagi madaniy aloqalar va uchrashuvlar tarixi tahlil qilinadi. XX asr davomida ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy hamkorlik mustahkamlanib bordi va bu jarayonda san'at, adabiyot, musiqa, kino va ta'lim sohalaridagi almashinuvlar muhim o'rin tutdi. Ishda mashhur hind san'atkorlarining O'zbekistonga tashrifi, o'zbek adib va rassomlarining Hindistonga qilgan safarlari, shuningdek, ikki tomonlama ilmiy va ijodiy hamkorliklarga alohida e'tibor qaratilgan. Hind kinosining O'zbekiston SSRdagi keng tarqalgan mashhurligi ham ikki xalq o'rtasidagi madaniy yaqinlikni chuqurlashtirgan muhim omil sifatida ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda madaniy aloqalarning nafaqat tarixiy, balki bugungi kundagi davomiyligi va ahamiyati ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: Hindiston, «Sovet O'zbekistoni», «Pravda Vostoka», Toshkent, Osiyo, O'zbekiston SSR, Tashqi ishlar ministrligi, Hindiston milliy kongressi.

КУЛЬТУРНЫЕ СВЯЗИ И ВСТРЕЧИ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР И ИНДИЙСКОЙ РЕСПУБЛИКОЙ

Аннотация. В статье анализируется история культурных связей и встреч между Узбекской ССР и Индией. На протяжении XX века культурное сотрудничество между двумя странами укреплялось, и важную роль в этом процессе играли обмены в области искусства, литературы, музыки, кино и образования. В работе особое внимание уделено визитам известных индийских деятелей искусства в Узбекистан, поездкам узбекских писателей и деятелей искусств в Индию, а также двустороннему научному и творческому сотрудничеству. Широкая популярность индийского кино в Узбекской ССР также упоминается как важный фактор, углубивший культурную близость между двумя народами. В исследовании подчеркивается преемственность и важность культурных связей не только в исторической перспективе, но и сегодня.

Ключевые слова: Индия, «Советский Узбекистан», «Правда Востока», Ташкент, Азия, Узбекская ССР, МИД, Индийский национальный конгресс.

CULTURAL RELATIONS AND MEETINGS BETWEEN THE UZBEKISTAN SSR AND INDIA

Annotation. This article analyzes the history of cultural ties and meetings between the Uzbek SSR and India. Throughout the 20th century, cultural cooperation between the two countries has been strengthening, and exchanges in the fields of art, literature, music, cinema and education have played an important role in this process. The work focuses on the visits of famous Indian artists to Uzbekistan, trips of Uzbek writers and artists to India, as well as bilateral scientific and creative cooperation. The widespread popularity of Indian cinema in the Uzbek SSR is also indicated as an important factor that deepened the cultural closeness between the two peoples. The study highlights not only the historical, but also the continuity and significance of cultural ties today.

Key words: India, "Soviet Uzbekistan", "Pravda Vostoka", Tashkent, Asia, Uzbek SSR, Ministry of Foreign Affairs, Indian National Congress.

Kirish (Introduction). O'zbekiston SSR va Hindiston o'rtasidagi madaniy aloqalar XX asrning o'rtalaridan boshlab faol shakllana boshlagan. Bu aloqalar Sovet Ittifoqining tashqi siyosati doirasida olib borilgan bo'lsa-da, ularning mazmuni asosan xalqlar do'stligi, madaniy almashinuv va tinchlikparvarlik g'oyalariga asoslangan edi. Hindiston mustaqillikka erishganidan so'ng, bu mamlakat bilan bo'lgan munosabatlar, jumladan, madaniyat, san'at, fan va ta'lim sohalaridagi aloqalar sezilarli darajada rivojlandi. 1955-yilda Hindiston Bosh vaziri Javoharlal Neru Sovet Ittifoqiga, jumladan, Toshkentga rasmiy tashrif buyurdi. Bu tashrif ikki mamlakat o'rtasidagi siyosiy va madaniy hamkorlikning yo'lini ochdi. Undan keyin turli madaniy delegatsiyalar, san'at va adabiyot arboblarning o'zaro safarlari tashkil etila boshlandi. O'zbekiston SSRda hind adabiyoti, ayniqsa Rabindranat Tagor, Djanardan Mohan va boshqa yozuvchilarning asarlari rus va o'zbek tillariga tarjima qilinib, keng o'quvchilar ommasiga yetkazildi.

Hind yozuvchilari Toshkentga tashrif buyurib, adabiy uchrashuvlarda ishtirok etishgan. O'zbek adiblari — Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon kabi yozuvchilar hind falsafasi va madaniyatiga qiziqish bildirgan, ayrim tarjimalar ustida ham ishlaganlar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Hindiston va Sovet Ittifoqi o'rtasidagi siyosiy hamkorlikni chuqur o'rganadi. Bu kontekstda O'zbekiston SSRda hind delegatsiyalarining qabul qilinishi, sovet-hind do'stlik jamiyatlari tashkil etilishi madaniy diplomatiya vositasi sifatida xizmat qilgan. Maqolalarda O'zbekistonda hind kinolari, raqs san'ati, falsafiy o'qishlar bilan tanishuvlar muhim o'rin egallagani qayd etiladi. 1980-yillarda Hindiston san'ati va adabiyotining O'zbekistonda keng yoyilishi kuzatiladi. Raj Kapur, Nargis kabi hind kino yulduzlarining Toshkentga tashrifi ommaviy axborot vositalarida keng yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistondagi san'atkorlarning Hindistonga safari (masalan, "Lazgi" raqsi guruhi) o'zaro ta'sir doirasini kengaytirgan. Hindiston jurnalistlari, markschi Kompartiyasi a'zolari delegatsiyasi Toshkentga keldi.

1985-yilning 18-oktabr kuni mehmonlar V.I.I.Lenin Markaziy muzeyining Toshkent filialida bo'ldilar, respublika poytaxtining diqqatga sazovor joylarini ko'zdan kechirdilar, «Sovet O'zbekistoni» va «Pravda Vostoka» respublika gazetalarini xodimlari bilan uchrashdilar. Shu kuni hindistonlik mehmonlar O'zbekiston Jurnalistlar soyuzida qabul qilindilar. Sovet davridan ancha avval ham Hindiston va Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida tarixiy, savdo va madaniy munosabatlar mavjud bo'lgan. Buyuk Ipak yo'li orqali Hindistonning ziravorlari, ipak va boshqa mahsulotlari Buxoro, Samarqand, Toshkent orqali Yevropaga olib o'tilgan. Islom davrida esa tasavvuf va ilmiy maktablar orqali Hindiston – Markaziy Osiyo aloqalari yanada kuchaygan.

Sovet Ittifoqi tashkil topgach, O'zbekiston SSR Hindiston bilan aloqalarda Toshkent orqali aloqa markazlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, 1950–1980-yillar oralig'ida ikki davlat o'rtasidagi do'stona munosabatlar doirasida O'zbekiston SSRga e'tibor ortdi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). XX asrning ikkinchi yarmi Sovet Ittifoqi va Hindiston Respublikasi o'rtasidagi diplomatik, siyosiy va madaniy munosabatlarning rivojlangan davri bo'lib, bu jarayonda O'zbekiston SSR muhim vositachi va faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'ldi. Madaniyat — xalqlarni birlashtiruvchi ko'prik sifatida Hindiston va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarda yetakchi o'rin egalladi. Ushbu aloqalar san'at, adabiyot, kino, ta'lim, fan, tarixiy meros va diniy-falsafiy qadriyatlar doirasida faol davom etdi. Madaniy aloqalarning kuchayishida ikki tomonlama delegatsiyalar tashrifi, ilmiy ekspeditsiyalar, adabiyot va san'at vakillarining o'zaro uchrashuvlari muhim rol o'ynadi. Ayniqsa, O'zbekiston SSRda hind kinosining mashhurligi, hind musiqa va raqs san'atining keng tarqalishi xalqlar o'rtasidagi madaniy yaqinlikni chuqurlashtirdi. O'zbekiston SSR san'at arboblari — raqqosalar, xonandalar, teatr aktyorlari Hindistonga tashrif buyurib, turli festival va madaniy kechalarda ishtirok etgan. Xususan: "Lazgi" va "Ufori" kabi milliy raqslar Hindiston sahnasida katta qiziqish uyg'otgan. Hindiston milliy kongressi partiyasi delegatsiyasi O'zbekiston hayoti bilan tanishmoqda. 1950–1980-yillarda Hind kinosi O'zbekiston SSRda eng mashhur xorijiy madaniy

- 38 mahsulotlardan biri bo'ldi. Raj Kapurning "Avare" va "Shri 420", Mehboob Xonning "Mother India" filmlari o'zbek tomoshabinlari qalbidan chuqur joy oldi.

1970-yillarda hind olimlari Toshkent, Buxoro va Samarqandga ekspeditsiya qilib, Temuriylar davri san'ati, islom arxitekturasini, Movarounnahr tarixini o'rgangan. O'zbekistonlik olimlar esa Hindistonning qadimiy madaniy markazlari – Deli, Agradagi me'moriy yodgorliklarni o'rganib, arxitektura, diniy-falsafiy o'xshashliklar ustida tadqiqot olib borgan. O'zbekiston kinoteatrlarida hind filmlari doimiy ravishda namoyish etilib turgan. Bu filmlar orqali hindcha musiqa, estetik ifoda, sevgi va jamiyatga oid falsafiy qarashlar o'zbek madaniyatiga muayyan ta'sir ko'rsatgan. Delegatsiya sostavida kongress Umum-Hindiston komitetining a'zolari, Hindiston parlamentining a'zolari bor. Mehmonlar V. I. Lenin Markaziy muzeyining Toshkent filialiga bordilar. O'zbekiston SSR Xalq xo'jaligi yutuqlari bilan tanishdilar. Respublika poytaxtining diqqatga sazovor joylarini va yangi qurilish rayonlarini ko'zdan kechirdilar. O'zbekiston SSR Tashqi ishlar ministrligida, Osiyo va Afrika mamlakat-publika komitetida, chet mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy aloqalar O'zbekiston jamiyatida bo'lib o'tdi. Bu aloqalar ikki xalq o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-oqibat va tinchlikparvarlik g'oyalarini mustahkamladi. Xususan, sovet davrida keng tarqalgan "xalq diplomatiyasi" kontsepsiyasi asosida oddiy fuqarolar darajasida madaniy muloqotlar keng yoyildi. Bu muloqotlar xalqlar o'rtasida o'zaro anglashuv va do'stlikning poydevorini yaratdi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). O'zbekiston SSR va Hindiston o'rtasidagi madaniy aloqalar XX asrda, ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda jadal rivojlandi. Ushbu ikki xalq o'rtasidagi tarixiy, madaniy va ilmiy hamkorliklar mustahkam poydevorga ega bo'lib, ular o'zaro hurmat, do'stlik va tinchlikka intilish ruhida shakllandi. Shuningdek, fan va ta'lim sohasida ham faol hamkorlik kuzatildi. Toshkentda hind talabalarining tahsil olishi, o'zbek olimlarining hind madaniyati va falsafasi bilan shug'ullanishi bu aloqalarni yanada mustahkam qildi. Bu jarayonlarda xalqlar diplomatiyasi, ya'ni oddiy fuqarolar o'rtasidagi do'stlik, o'zaro madaniy tushunish va hurmat alohida o'rin tutdi. O'zbekiston SSR va Hindiston o'rtasidagi madaniy hamkorlik sovet davridagi tashqi siyosiy chegaralarga qaramay, chin insoniy qadriyatlar va mushtarak madaniy merosga tayanib rivojlandi. Bu aloqalar nafaqat o'tmishda, balki bugungi kunda ham O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikning mustahkam asosi bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston SSR va Hindiston o'rtasidagi madaniy aloqalar nafaqat davlatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalarning aksidir, balki bu ikki qadimiy sivilizatsiyaning chuqur tarixiy, madaniy va ruhiy yaqinligining dalilidir. 1950–1980-yillarda bu aloqalar san'at, adabiyot, ilm-fan va ma'naviyat sohasida chuqur iz qoldirdi. Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi madaniy hamkorlik aynan shu tarixiy asoslarga tayanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хиндистондан келган меҳмонлар // Совет Ўзбекистони. 1985-йил 240 (19,316)-сон 19-октябр.
2. Хиндистонлик меҳмонлар // Совет Ўзбекистони. 1985-йил 244 (19,320)-сон 24-октябр.
3. Алимова.Д.А., Голованов А.А. Узбекистан в 1917-1990 годы противоборство идей и идеологий. - Ташкент: «Узбекистан», 2002. - 80 б.
4. Алимов И. А. Узбекское деханство на пути к социализму (социально-экономические преобразования в узбекском кишлаке в 1921-1925 гг. -Ташкент: Узбекистан, 1974. -239 с.
5. Қардош мамлакат учун энергия // Совет Ўзбекистони газетаси. 1985- йил 279 (19,355)-сон 3-феврал.
6. Мустафаева Н. Туркистон маорифи XX асрнинг 20-йиллари муаллифлари назарида // О'zbekiston tarixi. - Тошкент, 2004. -№3. -Б. 33-45.